

GLOBALLASHUV SHAROITIDA SHAXSNING DESTRUKTIV AXBOROTDAN PSIXOLOGIK HIMOYASI: TA'MINLOVCHI OMILLAR VA BARQARORLIK MEXANIZMLARI

Abbasov Alibek Abdullayevich,
erkin tadqiqotchi.

Annotatsiya: Maqolada globallashuv va raqamli kommunikatsiyalar kengayishi sharoitida shaxsning destruktiv axborotdan xavfsizligini psixologik ta'minlash omillari tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotda destruktiv axborotning asosiy ko'rinishlari (dezinformatsiya, manipulyatsiya, nafrat nutqi, radikallashuv kontenti, kiberbulling, "deepfake", koordinatsiyalashgan psixologik ta'sir kampaniyalari) hamda ularning shaxs ongiga kognitiv va emotsional ta'sir mexanizmlari yoritiladi. Psixologik xavfsizlikni ta'minlovchi omillar uch darajada guruhlanadi: (1) individual-resurs omillari (tanqidiy tafakkur, kognitiv mustaqillik, emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, media savodxonlik, axboriy-gigiyena); (2) ijtimoiy-institutsional omillar (oila va ta'lim muassasalari roli, jamoa qo'llovi, psixologik xizmatlar, faktcheking institutlari, krizis-kommunikatsiya); (3) texnologik-huquqiy omillar (platforma moderatsiyasi, algoritmik shaffoflik, maxfiylik va ma'lumotlar himoyasi, kiberxavfsizlik, javobgarlik va shikoyat mexanizmlari). Yakunda destruktiv axborot risklarini pasaytirishga qaratilgan kompleks "prevention–resilience–response" modeli asosida amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: globallashuv; destruktiv axborot; psixologik xavfsizlik; media savodxonlik; kognitiv barqarorlik; axboriy-gigiyena; kiberbulling; deepfake; platforma moderatsiyasi; algoritmik shaffoflik.

Аннотация: В статье анализируются факторы психологического обеспечения безопасности личности от деструктивной информации в условиях глобализации и расширения цифровых коммуникаций.



Рассматриваются ключевые формы деструктивного контента (дезинформация, манипуляции, язык ненависти, радикализирующий контент, кибербуллинг, deepfake, координированные кампании психологического воздействия) и механизмы их когнитивного и эмоционального влияния. Факторы психологической безопасности систематизируются на трёх уровнях: (1) индивидуальные ресурсы (критическое мышление, когнитивная автономия, эмоциональная устойчивость, стрессоустойчивость, медиаграмотность, информационная гигиена); (2) социально-институциональные факторы (роль семьи и образования, социальная поддержка, психологические службы, институты фактчекинга, кризисные коммуникации); (3) технологико-правовые факторы (модерация платформ, алгоритмическая прозрачность, защита данных и конфиденциальности, кибербезопасность, ответственность и механизмы жалоб). В заключении предлагается комплексная модель “prevention–resilience–response” и практические рекомендации по снижению рисков деструктивного информационного воздействия.

Ключевые слова: глобализация; деструктивная информация; психологическая безопасность; медиаграмотность; когнитивная устойчивость; информационная гигиена; кибербуллинг; deepfake; модерация платформ; алгоритмическая прозрачность.

Abstract: This article examines factors that psychologically safeguard individuals from destructive information in the context of globalization and expanding digital communications. It reviews major forms of destructive content—disinformation, manipulation, hate speech, radicalizing narratives, cyberbullying, deepfakes, and coordinated psychological influence campaigns—and explains their cognitive and emotional impact mechanisms. Protective factors are systematized across three levels: (1) individual resources (critical thinking, cognitive autonomy, emotional resilience, stress tolerance, media literacy, information hygiene); (2) socio-institutional factors (family and education, social support, psychological services, fact-checking institutions, crisis communication); and (3) techno-legal

factors (platform moderation, algorithmic transparency, privacy and data protection, cybersecurity, accountability and complaint mechanisms). The article concludes with a comprehensive “prevention–resilience–response” model and practical recommendations to reduce risks of destructive information influence.

Keywords: globalization; destructive information; psychological security; media literacy; cognitive resilience; information hygiene; cyberbullying; deepfakes; platform moderation; algorithmic transparency.

Globallashuv sharoitida axborot oqimlari keskin tezlashib, shaxsning axborot muhitiga bog‘liqligi ortdi. Ochiq platformalar va ijtimoiy tarmoqlar bir tomondan bilim va muloqot imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan destruktiv axborotning tez tarqalishi, manipulyatsiya va psixologik bosim orqali ongga ta’sir o‘tkazish xavfini kuchaytirmoqda. Shu bois shaxsning psixologik xavfsizligini ta’minlash masalasi faqat axborot texnologiyalari muammosi emas, balki ta’lim, ijtimoiy institutlar, huquq va psixologik barqarorlikni qamrab oladigan kompleks vazifadir.

Globallashuv jarayoni shiddat bilan kechayotgan bir zamonda o‘zgarishlar ko‘lami ijtimoiy hayotdan to davlat qurilishiga doir barcha jabhalarni qamrab olmoqda. Jumladan, axborotning globallashuvi mamlakatning tinchlik va barqarorligini ta’minlashda axborot xurujlaridan institutsional darajada himoya qilishni taqozo etadiki, bu mamlakatning harbiy sohasiga oid siyosati bilan bog‘liqdir.

Axborot, o‘zining atributiv xususiyatlaridan tashqari, iste’molchi uchun shaxsiy yoki jamoaviy, madaniy ahamiyatga ega bo‘ladi. Garchi axborotning xossalari shartli bo‘lsa-da, uning foydaliligi, qabul qiluvchi sub’ektga ta’sir qilish darajasi bilan belgilanadi. Agarda axborotni qabul qilgan sub’ekt, axborotda kerakli emotsional taasurol va bilimlarni olgan bo‘lsa, qoniqqanlik darajasi ham ortib boradi. Natijada maqsadini to‘g‘ri shakllantirib, maqbul xulq namunasini yuzaga chiqara oladi. Chunki axborot iste’molchisi turli ko‘rinishda ob’ekt bilan samarali munosabatga kirisha oladi. Agarda uzatilayotgan salbiy axborot iste’molchisining

ma'naviy dunyosiga taalluqli bo'lsa, ya'ni axboroning qabul qiluvchi undan emotsional qoniqish hosil qilsa, axborotni foydali, deb hisoblashishi mumkin. Axborot, turli sohalar bilan o'zaro aloqadorlikda bo'ladi va ular ijtimoiy munosabatlarning kechishini ta'minlaydi. Fikrimizcha, axborot xabarlardan tarkib topib, har bir xabar o'zida uchta psixologik xossani ifodalaydi. Bular:

- xabarni o'zi. U, aniq masalaga (mavzuga) bag'ishlangan bo'lib, ko'pincha diqqatni tortadigan jarayonlarga oid tayyorlanadi. Maqsad, axborot iste'molchisini jarayonni dinamikasidan xabardor etishdan iborat;

- xabarni iste'molchiga zavq baxshida etuvchi tarkibi. Bu tarkib, axborotning mavzusi, aniqrog'i iste'molchini kutishlari asosida ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Bunga misol munajjimlarning bashorati. Bu xabarlarda, burch sohiblarining nimanidir kutishlarini, bir muddat vaqtliroq munajjimlar ko'rsatma berish usuli bilan belgilab qo'yadilar. Maqsad, axborot iste'molchisining faoliyatini mazmuniga ta'sir ko'rsatishdan iborat;

- axborotni ishontiruvchi tarkiblari. Ishontiruvchi tarkib asosan hayotiy misollar bilan turli obrazlarning namunasi misolida uzatiladi. Uzatiladigan xabarning mazmuni, sub'ektni kerakli bo'lgan g'oyaga ishonchini uyg'otib, raqam va dalillar esa ishonch darajasini oshirish uchun vosita sifatida qo'llaniladi. Maqsad, axborot iste'molchisini ongiga ma'lum g'oyani singdirishdan iborat. Agarda, g'oya bunyodkorlikka chorlovchi, yaratuvchanlikka yo'naltiruvchi bo'lsa, sub'ektning xulq namunasida moddiy yoki ma'naviy yaratuvchanlik mujassamlashadi. Natijada, ijtimoiy hamkorlikka intilish, turli millat vakillariga xayrxoh munosabatda bo'lish, boshqa din va madaniyat namoyondalariga bag'rikenglik ko'rsatish, jamiyat va davlat arboblari ga ishonch bildirish namunalari turli ko'rinishlarda ifodalanadi. Agarda, vayronkor g'oya ifodalangan bo'lsa, turli ko'rinishdagi agressiv xulq namunalari ifodalanib, destruktiv "Men", egotsentrizm, separatizm, milliy shovinizm kabi destruktiv xulq namunalari ifodalanib, jamiyat hayotining turli sohalarida muammolar ifodalanadi. Shu sababli, axborot-psixologik xavfsizlik va

axborotning psixologik xavfsizligi ikkita sathda, ochiq va yopiq sathda institutsional tarzda ta'minlanadi.

Bugungi davrda harbiy harakatlarda inson faoliyatini ta'minlovchi omillarda birinchi navbatda axborot namoyon bo'ladi. Aynan axborot, harbiy xizmatchi faoliyatini boshqarish, kasbiy burchini bajarishga ishonchni shakllantirish kabi vazifalarni bajaradiki, bu xususda V.I.YArochkin axborot kanallarini himoyalashni tavsiya etadi¹. Bunda jarayonga statik, ya'ni texnik ta'minotni amalga oshirish ustunlik qilmoqda.

Harakatlar strategiyasining "V–Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar" bobining "5.1–Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar" bandida: "O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish; axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va munosib qarshilik ko'rsatish²" masalasi alohida ko'rsatib o'tilgan edi.

Agarda, "axborot insonning xulqini, ma'naviy dunyosini o'zgartira oladigan, "ijtimoiy kuch"³ ekanligini inobatga olsak, bunda axborotni psixologik xavfsizligini ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi. Bu mavzuga doir bir qator tadqiqotlar va ommabop manbalar yaratilgan⁴.

Xavfsizlik tizimi tashkiliy jihatdan maqsadga yo'naltirilganligi jihatida

¹ Ярочкин В.И. Информационная безопасность. - М.: Академический Проект; Гаудеамус, 2-е изд. 2004. – С. 30-98.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Расмий нашр, иккинчи нашр. – Тошкент.: Адолат, 2017. – Б. 27.

³ Самаров Р.С. Ахборотнинг психологик хавфсизлигини таъминлаш механизми (услубий қўлланма). – Тошкент: Университет, 2015. 19-бет.

⁴ Hobfoll S. E. & Lilly R. S. Resource conservation as a strategy for community psychology // Journal of Community Psychology. 1993, № 21., Теория и практика обеспечения информационной безопасности. - М.: Яхтсмен, 1996., Расторгуев С. П. Информационная война. - М.: Радио и связь, 1998., Джуманов О.И., Инатов А.И. Методы и алгоритмы контроля достоверности передачи и обработки изображений непрерывных объектов сложной структуры // СамДУ Илмий ахборотномаси, 2014-йил, 3А-сон (85).

integratsiyaga tayanib, fuqarolik jamiyati qurish yo'lida hamda davlat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yaratilgan (tanlangan) maqsadli usul va vositalar asosida vujudga kelgan muammolarni o'zaro manfaatdorlikda echishga yo'naltirilgandir. Xavfsizlikni ta'minlash⁵ yo'lida paydo bo'ladigan tahdidlar shu qadar o'zgaruvchan va moslashuvchan xarakterga egaki, ularni ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ma'naviy kabi jihatlarini aniqlamasdan turib, shaxs, davlat va jamiyat darajalarida himoya tizimini shakllantirib bo'lmaydi. Boz ustida tahdidlarni intellektuallashuvini inobatga olsak, ularni o'z vaqtida belgilash (diagnostikasini amalga oshirish) aniq ilmiy uslublardan foydalanishni taqozo etadi.

Jamiyat xavfsizligi dastavval uning ijtimoiy barqarorligi va iqtisodiyotining xavf-xatarsiz rivojlanishi, ijtimoiy hayotning turli tarmoqlariga oid mavjud siyosatning holatiga bog'liq bo'lib, psixologik nuqtai nazardan esa, jamiyat xavfsizligi tizimining vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- jamiyatning hayotiy muhim ehtiyojlarini himoya qilish;
- jamiyatni turli axborot xurujlaridan himoya qilish;
- jamiyatni siyosiy, madaniy, iqtisodiy va ma'naviy ekspansiyalardan himoya qilish;
- jamiyatda ifodalanishi mumkin bo'lgan og'ishli xulq namunalarini (bir jinsli nikoh, terroristik harakatlarga a'zo bo'lish va boshqalar) ifodalanishiga yo'l qo'ymaslik;
- jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi umumiy maqsadni (taraqqiyot strategiyasiga hissa qo'shish, faollikni namoyon etish va boshqalar) shakllantirish uchun zamin yaratish;
- ijtimoiy qatlamlar orasida muvozanatni ta'minlash;
- jamiyatda fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini samaradorligini ta'minlash;

⁵ Дарслик матнида хавфсизликни таъминлаш дейилганда шахс, жамият ва давлатнинг ҳаётий муҳим манфаатларини ички ва ташқи таҳдидлардан ҳимояланганлик ҳолати назарда тутилган.

- jamiyatda “Biz – O‘zbekistonlik” psixologik majmuasini (siyimosini) rivojlantirish.

Xavfsizlikni ta’minlash O‘zbekiston Respublikasining yanada rivojlanishi, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishning asosiy shartlaridan hisoblanib, uni turli jabhalarini o‘z vaqtida o‘rganib⁶, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, harbiy-texnik, psixologik o‘lchov birliklari asosida baho berishdan iboratdir.

Xavfsizlikni ta’minlashning turli jihatlar mavjud bo‘lib, xavfsizlikni tashkil etish konsepsiyasi nuqtai nazari bo‘yicha asosiylari sifatida: metodologik, iqtisodiy, huquqiy, harbiy - texnik jihatlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Xavfsizlikni ushbu tarzda tahlil etish axborot-psixologik xavfsizligini ta’minlash strategiyasini ishlab chiqish uchun amaliy ahamiyat kasb etadi. Xavfsizlikni axborotning mazmunida mujassamlashgan xavf-xatarlarning yo‘naltirilganligi asosida tasniflash mumkin, bu o‘z navbatida:

- birinchidan, axborotning psixologik xavfsizligini shaxs, jamoa (guruh), hudud, jamiyat va davlat darajalarida ta’minlash bobida yaratiladigan chora-tadbirlarning mazmunini ta’minlab, uni ta’minlashda hamkorlik faoliyatini samaradorligini oshiradi. Hamkorlik faoliyati qo‘yi darajada informatsiolog, psixolog, harbiy mutaxassis va yuqori darajada vazirlik va qo‘mitalararo tarzida kechishi mumkin;

- ikkinchidan, axborotning psixologik xavfsizligini ta’minlash bobida “SHaxs → Jamoa (Guruh) → Jamiyat → Davlat” munosabatlarini Davlat xavfsizligining asosiy tarkibiy qismlari sifatida ko‘rib chiqishni ta’minlaydi. Bunda har bir konsept, axborot yaratuvchi va tarqatuvchi, axborotga ishlov beruvchi va undan foydalanuvchi tarzida govddalanadi.

⁶ Хавф ва таҳдидларни олдиндан аниқлаб (диагнози ва прогнозини амалга ошириб), уларнинг объектга нисбатан таъсир ўтказиш даражасини (фоиз, тонна, килограмм, балл ва бошқа кўрсаткичлар ҳисобида) белгилаш.

Jamiyatda iqtisodiy, madaniy, siyosiy, ma'rifiy globallashuv jarayonining faollashuvini siyosiy va psixologik asosda tahlil etilganda, uning negizida aniq bir siyosatning g'oyalari ifodalanganligini anglab olish mumkin. Bunda muhim omil sifatida biron bir mamlakatning (kuchning) manfaatlari gavdalanib, maqsadga erishish uchun turli usul va vositalardan foydalaniladi. Ularni barcha xususiyatlarini inobatga olgan holda axborotdan psixologik ta'sir ko'rsatish deb belgilasak maqsadga muvofiqdir.

Globallashuv davrida destruktiv axborotdan psixologik himoya shaxsning tanqidiy tafakkuri va emotsional barqarorligidan boshlanadi, biroq natija institutsional qo'llov hamda platforma va huquqiy mexanizmlar bilan uyg'unlashgandagina barqaror bo'ladi. Media savodxonlik va axboriy-gigiyena ko'nikmalarini rivojlantirish, faktcheking va krizis-kommunikatsiya tizimlarini kuchaytirish, kiberbulling va radikallashuv risklariga erta intervensiya choralarini joriy etish muhimdir. Platforma moderatsiyasi, algoritmik shaffoflik, ma'lumotlar himoyasi va javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirish esa individual chidamlilikni tizimli xavfsizlikka aylantiradi. Shu tariqa "prevention–resilience–response" modeli destruktiv axborot ta'sirini kamaytirishning amaliy konsepsiyasi sifatida xizmat qiladi.